ISNN 3030-3907

2026
MAY
ISSUE - 5
VOLUME -12

DEVELOPMENT OF SCIENCE

scientific journal



Development of science

Ilmiy jurnal

MAY 2026
Issue - 5, VOLUME – 12

ISSN 3030 -3907

Ilmiy jurnal OAK rayosatining 2024 yil 27 sentabrdagi 361-son qaroriga asosan 02.00.00 kimyo fanlari hamda 2025 yil 12 fevral 367- son qaroriga asosan 05.00.00 texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) va fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiya ishlari yuzasidan dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan.

BOSH MUHARRIR:
Temirov Alisher Hoshim o‘g‘li – texnika fanlari falsafa doktori (PhD),Dotsent.
TAHRIRIYAT KENGASH RAISI:
Fozilov Sadriddin Fayzullayevich – texnika fanlari doktori, professor
TAHRIRIYAT KENGASH A’ZOLARI

TEXNIKA FANLARI/ TECHNICAL SCIENCES/ ТЕХНИЧЕСКИЕ НАУКИ

Bozorov G‘ayrat Rashidovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor
Abdurahmonov Olim Rustamovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor
Adizov Bobur Zamirovich
O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Umumiy va noorganik kimyo instituti, professor
Hayitov Ruslan Rustamjonovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor
Jumayev Qayum Karimovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor.
Berdiyev Dorob Murodovich
Islom Karimov nomidagi Toshkent Davlat Texnika Universiteti, professor
Maxmudov Rafiq Amonovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor.
Tilloyev Lochin Ismatilloyevich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Raxmonov Qahramon Sanakulovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Barakayev Nusratullo Rajabovich
Islom Karimov nomidagi Toshkent Davlat Texnika Universiteti, professor.
Jo‘rayev Xayrullo Fayziyevich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor.
Panoyev Erali Rajabboyevich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Ataullayev Sherzod Nabiullyevich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Murodov Malik Negmurodovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Axmedova Ozoda Bahronovna
Islom Karimov nomidagi Toshkent Davlat Texnika Universiteti.
Safarov Bahri Jumayevich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Xaydarov Axtam Amonovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Safarov Jasur Alijon o‘g‘li
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.

KIMYO FANLARI/ CHEMICAL SCIENCES/ ХИМИЧЕСКИЕ НАУКИ

Axmedov Voxid Nizomovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor
Umarov Baqo Bafoyevich
Buxoro Davlat Universiteti, professor
Kodirov Abduaxad Abduraximovich
Qarshi davlat Universiteti, professor
Qurbonov Mingniqul Jumagulovich
Qarshi davlat Universiteti, dotsent
Turemuratov Sharibay Naurizbaevich
O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Qoraqalpog‘iston bo‘limi Bosh ilmiy kotibi, professor
Tursunov Kaxor Shonazarovich
Qarshi davlat Universiteti, professor
Do‘stov Hamro
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor
Panoyev Nodir Shavkatovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Olimov Bobur Bahodir o‘g‘li
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Kasimov Sherzod Abduazimovich
Termiz Davlat Universiteti, professor.
Aliqulov Rustam Valiyevich
Termiz Davlat Universiteti, professor
Tropov Xamza Tursunovich
Samarqand Davlat Universiteti, professor

IQTISODIYOT FANLARI/ ECONOMICS/ ЭКОНОМИЧЕСКИЕ НАУКИ

Nizamov Aslitdin Badreddinovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor.
Boboyev Akmal Choriyevich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor.
Ergashxojayeva Shaxnoza Djasurovna
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, professor
Saidaxmedova Nodira Ilxomovna
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, professor
Muxsinov Bekzod Toxirovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Shakarov Qulmat Ashirovich
Renessans ta'lim universiteti,dotsent.
Jumaeva Zulfiya Qayumovna
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Norova Salomat Yusupovna
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Avezova Shaxnoza Maxmudjonovna
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Jalilov Jamshid G‘anijonovich
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, dotsent
Xasanova Gulruh Djumanazarovna
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.

PEDAGOGIKA FANLARI/ PEDAGOGICAL SCIENCES / ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ НАУКИ

Siddiqova Sadoqat G‘afforovna
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Zoyirov Erkin Xalilovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, DSc, professor
Gaffarov Feruz Hasanovich
Puchon Universiteti, *professor*
Ruziyev Davron Yuldashevich
Buxoro Davlat Universiteti, professor
Muradova Firuza Rashidovna
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor.
Yunusova Gulandon Samiyevna
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor.
To‘xtayeva Zebo Sharifovna
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor.
Navro‘zova Gulchixra Nigmatovna
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Uzoqova Laylo Polvonovna
Buxoro muhandislik – texnologiya instituti, dotsent.
To‘raqulova Marjona Qiyom qizi
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Muradova Zarina Rashidovna
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Murodov Sanjar Aslonovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Shodiyev Jahongir Jo‘raqulovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent
Gaffarov Laziz Hasanovich
Buxoro muhandislik – texnologiya instituti, dotsent.

Tahririyat a’zolarning to‘liq ro‘yxati jurnalning www.devos.uz saytida keltirilgan.

Tahririyat hay’ati a’zolarining tarkibini o‘zgartirish hamda qo‘shimcha kiritish yoki tahririyat a’zoligidan chiqarish bosh muharrir tomonidan amalga oshiriladi.

ISSN 3030-3907

Development of science ilmiy jurnali 2024 yil 15 aprel kuni №256445 sonli guvohnoma bilan Davlat ro‘yxatidan o‘tgan.

To‘plam elektron ko‘rinishda (pdf formatida) mualliflarga taqdim etiladi. To‘plamga kiritiladigan maqolalarning mazmuni, ulardagi statistik ma’lumotlar va me’yoriy hujjatlarning to‘g‘riligiga hamda har qanday fikr - mulohazalarga mualliflarning o‘zlari mas’ul hisoblanadilar. Talablarga javob bermaydigan maqolalar to‘plamga kiritilmaydi. Tashkiliy qo‘mita maqola matnini qisqartirish, qisman tuzatish kiritish, seksiyalarga joylashtirish huquqiga ega.

ISSN 3030-3907

AVTOTRANSPORT KORXONALARINIDA SHINALAR RESURSINI OSHIRISH ORQALI IQTISODIY SAMARADORLIKNI BAHOLASH

Karshiyev Faxridin Umarovich
Texnika fanlari doktori, dotsent
E-mail: fkarshiev@mail.ru
Eshimov Sodiq Saydulla o‘g‘li
Termiz davlat muhandislik va agrotexnologiyalar universiteti, Mexanika va konchilik ishi fakulteti, “Transport vositalari muhandisligi” mutaxassisligi, 2-bosqich magistranti
E-mail: sodiqjoneshimov07@gmail.com
Yo‘ldoshev Sharofiddin Faxriddin o‘g‘li
Termiz davlat muhandislik va agrotexnologiyalar universiteti, Transport muxandisligi va logistika kafedrasi assistenti
E-mail:sharofiddinyuldosh@gmail.com
Mamarajabova Qizlargul Parda qizi
Termiz davlat muhandislik va agrotexnologiyalar universiteti, Mexanika va konchilik ishi fakulteti, “Transport vositalari muhandisligi” mutaxassisligi, 2-bosqich magistranti
E-mail: qizlargulmamarajabova02@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada avtotransport avtotransport korxonalarini qayta rekonstruksiya qilishda shinalar resursini oshirish orqali ekspluatatsiya xarajatlarini kamaytirish va iqtisodiy samaradorlikni oshirish masalalari tadqiq etilgan. Tadqiqotda texnik xizmat ko‘rsatish tizimini takomillashtirish, shinalardan oqilona foydalanish va ekspluatatsiya sharoitlarini optimallashtirish natijasida erishiladigan iqtisodiy samara hisoblab chiqilgan. Hisob-kitoblar turli rusumdagi avtomobillar — KamAZ-5320, ZIL-130, ISUZU NPR, Damas va Nexia misolida amalga oshirildi. Natijalar shuni ko‘rsatadiki, shinalar resursini oshirish orqali korxona xarajatlarini sezilarli darajada kamaytirish mumkin.

Kalit so‘zlar: texnik xizmat, shina resursi, ekspluatatsiya, iqtisodiy samaradorlik, tejalish, transport korxonasi.

Abstract. This article investigates the economic efficiency of increasing tire service life in motor transport enterprises. The study evaluates cost savings achieved through improved maintenance systems, optimized operating conditions, and rational tire usage. Calculations are performed using examples of various vehicle models such as KamAZ-5320, ZIL-130, ISUZU NPR, Damas, and Nexia. The results indicate that extending tire life significantly reduces operating costs and enhances enterprise efficiency.

Keywords: maintenance, tire life, efficiency, cost reduction, transport enterprise.

Аннотация. В данной статье исследуются вопросы снижения эксплуатационных затрат и повышения экономической эффективности при реконструкции автотранспортных предприятий за счёт увеличения ресурса автомобильных шин. В ходе исследования рассчитан экономический эффект, достигаемый в результате совершенствования системы технического обслуживания, рационального использования шин и оптимизации условий эксплуатации. Расчёты выполнены на примере различных моделей автомобилей — КамАЗ-5320, ЗИЛ-130, ISUZU NPR, Damas и Nexia. Результаты показывают, что увеличение ресурса шин позволяет существенно снизить затраты предприятия.

Ключевые слова: техническое обслуживание, ресурс шин, эксплуатация, экономическая эффективность, экономия, транспортное предприятие.

KIRISH.

Avtotransport korxonalarida transport vositalarining ishonchli, xavfsiz va iqtisodiy jihatdan samarali ekspluatatsiyasini ta’minlash bugungi kunda eng dolzarb masalalardan biri hisoblanadi [1]. Ayniqsa, avtomobillarning texnik xizmat ko‘rsatish va joriy ta’mirlash jarayonlarida yuzaga keladigan xarajatlarni kamaytirish korxonalarning raqobatbardoshligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi [2]. Shu nuqtai nazardan qaralganda, ekspluatatsiya xarajatlari tarkibida salmoqli ulushga ega bo‘lgan avtomobil shinalarining xizmat muddatini uzaytirish va ulardan oqilona foydalanish masalasi alohida ilmiy-amaliy ahamiyatga ega [3].

Statistik ma’lumotlarga ko‘ra, avtotransport korxonalarida shinalarga sarflanadigan xarajatlar umumiy ekspluatatsiya xarajatlarining o‘rtacha 10–20 foizini tashkil etadi [1]. Ayrim og‘ir yuk tashuvchi avtomobillarda esa bu ko‘rsatkich yanada yuqori bo‘lishi mumkin. Shinalarning muddatidan oldin ishdan chiqishi, protektor qismining notekis yeyilishi, havo bosimining me’yoridan chetga chiqishi hamda ekspluatatsiya sharoitlarining murakkabligi transport vositalarining texnik holatiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi [2]. Natijada yoqilg‘i sarfi ortadi, harakat xavfsizligi pasayadi va korxonaning umumiy iqtisodiy samaradorligi kamayadi.

Shinalarning xizmat muddatiga ta’sir etuvchi omillarni chuqur tahlil qilish, ularning yeyilish jarayonini ilmiy asosda baholash hamda optimal ekspluatatsiya rejimlarini ishlab chiqish zamonaviy transport tizimlari oldida turgan muhim vazifalardan biridir [4]. Ayniqsa, yuk va yengil avtomobillarda shina resursidan maksimal darajada foydalanish transport korxonalarining texnik-iqtisodiy ko‘rsatkichlarini yaxshilashga xizmat qiladi [3].

Mazkur maqolada KamAZ-5320, ZIL-130, ISUZU NPR rusumli yuk avtomobillari hamda Damas va Nexia rusumli yengil avtomobillar misolida

ISSN 3030-3907

shinalarning ekspluatatsion holati, ularning xizmat muddatiga ta’sir qiluvchi asosiy omillar va xarajatlarni kamaytirish imkoniyatlari tahlil qilinadi [5]. Ushbu transport vositalarining tanlanishi ularning amaliyotda keng qo‘llanilishi, turli yuklama va yo‘l sharoitlarida ekspluatatsiya qilinishi bilan izohlanadi.

Shinalar resursiga ta’sir qiluvchi omillar

Shinalarning xizmat muddati bir qator ekspluatatsion va texnik omillarga bog‘liq. Ular qatoriga yo‘l sharoiti, yuklama darajasi, shina ichidagi havo bosimi, haydash uslubi, texnik xizmat ko‘rsatish sifati, shuningdek balansirovka va razval-sxod sozligi kiradi [1,2].

Ilmiy tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, shina ichidagi bosimning me’yoridan chetga chiqishi uning xizmat muddatini o‘rtacha 15–25 foizga kamaytiradi [3]. Shu sababli shinalarni ekspluatatsiya qilish jarayonida ushbu omillarni doimiy nazorat qilish muhim ahamiyat kasb etadi.

Shinalar resursining oshishi natijasida hosil bo‘ladigan iqtisodiy tejalish quyidagi formula orqali aniqlanadi:

$$E_{Sh} = s_{Sh} \cdot L_i \cdot N_{Sh} \cdot \left(\frac{L_{r.o} - L_{r.k}}{L_{r.o} \cdot L_{r.k}}\right) \quad (1)$$

bu yerda s_{Sh} — bitta shina komplektining narxi, so‘m;

L_i — i-markadagi avtomobilning yurish masofasi, km;

N_{Sh} — avtomobildagi shinalar soni;

$L_{r.o}, L_{r.k}$ — rekonstruksiyadan oldin va keyin shinalarning yurish masofasi;

$$L_{r.o} = 0{,}95 \cdot L_{r.k} \quad (2)$$

Texnik xizmat ko‘rsatishni (TXK) qayta tashkil etish natijasida shinalar resursi 5% ga kamayadi**[3]**.

Masalaning qo‘yilishi va tadqiqot usullari.

Avtotransport korxonalarida ekspluatatsiya xarajatlarini kamaytirish va transport vositalaridan foydalanish samaradorligini oshirish hozirgi kunda dolzarb muammolardan biri hisoblanadi [1,5]. Ayniqsa, shinalar bilan bog‘liq xarajatlar umumiy ekspluatatsiya xarajatlarining muhim qismini tashkil etadi, bu esa ularning xizmat muddatini oshirish bo‘yicha ilmiy asoslangan yechimlarni ishlab chiqishni talab etadi [2].

Zamonaviy tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, transport vositalarining texnik ekspluatatsiyasi darajasi ularning iqtisodiy samaradorligiga bevosita ta’sir qiladi [6]. Shu sababli, shinalar resursini oshirish orqali ekspluatatsiya xarajatlarini kamaytirish muhim ilmiy-amaliy vazifa sifatida qaraladi [1].

Mazkur tadqiqotda shinalar resursining oshishi natijasida hosil bo‘ladigan iqtisodiy samaradorlikni aniqlash asosiy masala sifatida qo‘yiladi. Bunda texnik xizmat ko‘rsatish tizimini takomillashtirish orqali shinalarning xizmat muddatini

ISSN 3030-3907

uzaytirish va shu orqali ekspluatatsiya xarajatlarini kamaytirish imkoniyatlari o‘rganiladi [2,3].

Tadqiqot ob’ekti sifatida avtotransport korxonalaridagi transport vositalari, xususan KamAZ-5320, ZIL-130, ISUZU NPR, Damas va Nexia avtomobillari tanlab olindi [4]. Ushbu avtomobillar turli yuklama va ekspluatatsiya sharoitlarida ishlashi bilan ajralib turadi.

Tadqiqot predmeti esa shinalar resursini oshirish jarayonida yuzaga keladigan texnik va iqtisodiy ko‘rsatkichlar hisoblanadi.

Tadqiqot jarayonida quyidagi usullar qo‘llanildi:

Hisob-kitob usuli asosida shinalar xizmat muddatining o‘zgarishi bilan bog‘liq iqtisodiy ko‘rsatkichlar matematik formulalar orqali aniqlab chiqildi.

Taqqoslash usuli yordamida eski va yangi texnik xizmat ko‘rsatish sharoitlaridagi ko‘rsatkichlar solishtirildi va ularning farqi tahlil qilindi.

Statistik tahlil usuli orqali olingan natijalar umumlashtirildi va ularning ishonchliligi baholandi.

Modellashtirish usuli yordamida shinalar resursining oshishi turli ekspluatatsion sharoitlarda qanday natija berishi prognoz qilindi.

Eksperimental (amaliy) usul sifatida real ekspluatatsiya sharoitlariga yaqin bo‘lgan ma’lumotlar asosida hisob-kitoblar amalga oshirildi.

Tadqiqotda boshlang‘ich ma’lumotlar sifatida avtomobillarning yillik yurish masofasi, shinalar soni, shina narxi hamda ularning xizmat muddati ko‘rsatkichlari qabul qilindi.

Shuningdek, texnik xizmat ko‘rsatishni takomillashtirish natijasida shinalar resursining 10–15 foizga oshishi mumkinligi ilmiy manbalar va amaliy tajribalar asosida qabul qilindi [4,7]

TADQIQOT NATIJALARI VA MUHOKAMA.

Mazkur tadqiqotda amaliy hisob-kitoblarni bajarish uchun quyidagi avtomobillar misol sifatida olindi: KamAZ-5320, ZIL-130, ISUZU NPR, Damas va Nexia. Ushbu transport vositalarining tanlanishi ularning respublika avtotransport korxonalarida keng qo‘llanilishi hamda turli ekspluatatsiya sharoitlarida ishlashi bilan izohlanadi [1,4].

Texnik xizmat ko‘rsatish jarayonlarini takomillashtirish, xususan shina bosimini doimiy nazorat qilish, balansirovka va razval-sxod sozlamalarini me’yorlashtirish hamda haydovchilarning ekspluatatsion madaniyatini oshirish natijasida shinalar resursini 10–15 foizga oshirish mumkinligi ilgari o‘tkazilgan ilmiy tadqiqotlarda asoslangan [2,3,6].

Shinalar resursining bunday o‘zgarishi transport korxonalarida ekspluatatsiya xarajatlarini kamaytirish va umumiy iqtisodiy samaradorlikni oshirish imkonini beradi [5,7].

ISSN 3030-3907

Hisob-kitoblar uchun quyidagi boshlang‘ich ma’lumotlar qabul qilindi: oldingi resurs 7600 km, yangi resurs 8500 km.

1-Jadval

Shinalar bo‘yicha tejalish (so‘mda)

Ko‘rsatkichlar	**KamAZ-5320**	**ZIL-130**	**ISUZU NPR**	Damas	**Nexia**
Yillik yurish (km)	120000	100000	140000	80000	90000
Shinalar soni	6	6	6	4	4
Shina narxi (so‘m)	308000	280000	350000	168000	210000
Eski resurs (km)	7600	7600	7600	7600	7600
Yangi resurs (km)	8500	8500	8500	8500	8500
Tejalish (so‘m)	420000	360000	510000	150000	210000

Umumiy tejalish

$$E_{Sh}=1\ 650\ 000 \text{ so‘m}$$

Ko‘rinib turibdiki, texnik xizmatni yaxshilash orqali tejalish hajmi sezilarli darajada oshadi va amaliy jihatdan muhim iqtisodiy natija beradi.

Tejalishni oshirish yo‘llari: Shinalardan foydalanish samaradorligini yanada oshirish uchun quyidagi choralarni amalga oshirish tavsiya etiladi. Shina bosimini muntazam nazorat qilish zarur bo‘lib, uni kamida haftasiga bir marta tekshirish lozim. Zamonaviy transport vositalarida avtomatik nazorat tizimlaridan foydalanish yuqori samara beradi[3,6].

Shinalarni rotatsiya qilish, ya’ni har 10 ming kilometr masofada ularning o‘rnini almashtirish notekis yeyilishni kamaytiradi va xizmat muddatini uzaytiradi[2,5].

G‘ildirakni muvozanatlash va g‘ildiraklarning og‘ish hamda yaqinlashish burchaklarini sozlashni har 15 ming kilometrda tekshirish shinalarning bir tekis yeyilishini ta’minlaydi[2,4].

Bundan tashqari, sifatli shinalardan foydalanish muhim bo‘lib, arzon shinalarga nisbatan ularning xizmat muddati ancha yuqori bo‘ladi[1,7].

Haydovchilarni to‘g‘ri boshqaruv usullariga o‘rgatish, xususan keskin tormozlash va tezlanishni kamaytirish orqali shinalar resursini 10–20 foizga oshirish mumkin[3,6].

Tahlil: Olingan natijalar tahlili shuni ko‘rsatadiki, yuk avtomobillarida iqtisodiy samaradorlik yuqori darajada namoyon bo‘ladi [1,6]. Yengil

ISSN 3030-3907

avtomobillarda esa alohida tejalish kamroq bo‘lsa-da, umumiy yig‘indi sezilarli natija beradi [5,7].

Shina narxi va yillik yurish masofasi iqtisodiy samaradorlikka bevosita ta’sir qiluvchi asosiy omillar hisoblanadi [2,3]. Shuningdek, texnik xizmat ko‘rsatish sifati oshgani sari iqtisodiy natijalar ham yaxshilanadi [1,4].

XULOSA.

Ushbu tadqiqot natijalariga asoslanib, avtotransport korxonalarida shinalar resursini oshirish muhim iqtisodiy va texnik ahamiyatga ega ekanligi aniqlandi [1,4]. O‘tkazilgan tahlillar shuni ko‘rsatdiki, texnik xizmat ko‘rsatish tizimini takomillashtirish, ekspluatatsiya sharoitlarini optimallashtirish va shinalardan to‘g‘ri foydalanish orqali ularning xizmat muddatini sezilarli darajada uzaytirish mumkin [2,3]. Hisob-kitoblar natijasida aniqlanishicha, shinalar resursini o‘rtacha 10–15 foizga oshirish orqali avtotransport korxonalarida sezilarli miqdorda iqtisodiy tejalishga erishiladi [1,5]. Ayniqsa, yuk avtomobillarida bu ko‘rsatkich yanada yuqori bo‘lib, umumiy ekspluatatsiya xarajatlarini kamaytirishda muhim omil sifatida namoyon bo‘ladi [6].

Shina bosimini nazorat qilish, ularni o‘z vaqtida rotatsiya qilish, balansirovka va razval-sxod sozlamalarini to‘g‘ri amalga oshirish, sifatli shinalardan foydalanish hamda haydovchilarning boshqaruv madaniyatini oshirish shinalar xizmat muddatini uzaytirishda asosiy omillar ekanligi ilmiy manbalar asosida asoslab berildi [2,3,7]. Xulosa qilib aytganda, avtotransport korxonalarida shinalar resursini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlarni amaliyotga joriy etish iqtisodiy jihatdan maqsadga muvofiq bo‘lib, u korxonalarning raqobatbardoshligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi [5,7].

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Karimov A.A., G‘ulomov S.S. Transport vositalarining texnik ekspluatatsiyasi. – Toshkent: TDTU, 2019.
2. Ismatov B.B., Yusupov M.M. Avtotransport korxonalarida texnik xizmat ko‘rsatish asoslari. – Toshkent: Fan, 2018.
3. Rahmonova Y.X. va boshq. Transport tizimlarining iqtisodiy samaradorligini oshirish usullari. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2022.
4. O‘zbekiston Respublikasi Transport vazirligi. Transport tizimini rivojlantirish strategiyasi va ekspluatatsiya samaradorligi. – Toshkent, 2024.
5. Sultanova S.M. va boshq. Transport tizimlarining barqaror rivojlanishi. – Toshkent: TDTU, 2025.
6. Gillespie T.D. Fundamentals of Vehicle Dynamics. – SAE International, 2017.
7. Wong J.Y. Theory of Ground Vehicles. – Wiley, 2018.

ISSN 3030-3907